



# O'ZBEK AMALIY TILSHUNOSLIGI VA LINGVODIDAKTIKASI MASALALARI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani  
materiallari to'plami

**20** <sup>21-yil</sup>  
**-oktabr**

TOSHKENT

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK AMALIY TILSHUNOSLIGI VA  
LINGVODIDAKTIKASI MASALALARI”  
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari  
(2021-yil 20-oktabr)**

**Toshkent - 2021**

## **TASHKILIY QO'MITA**

Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Jamoliddinova Odinaxon Rustamovna (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi)

Mamaraimova Nasiba Yadgarovna (Xalq ta'limi vazirligi)

Hamroyev G'ofir Hasanovich (O'zR Vazirlar Mahkamasining Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti)

Nosirov Abdurahim Abdumutallipovich (Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi)

Sattorov Shuhrat Shavkatovich (Respublika ta'lim markazi)

Shakarov Zohid Xolboyevich (Davlat test markazi)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Raupova Laylo Raximovna (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Shaxabitdinova Shoxida Xashimovna (Andijon davlat universiteti)

Abdirashidov Zaynabidin Sharabidinovich (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Jo'raqo'ziev Nodir Imomqo'ziyevich (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Yusupova Tursunoy Axmedovna (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Xamroeva Shahlo Mirdjonovna (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Abdiraimov Shohruh Samad o'g'li (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Mavlonova Klara Mahmudovna (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Gulyamova Shaxnoza Kaxramonovna (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

## **TAHRIR HAY'ATI**

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich

Raupova Laylo Raximovna

Mavlonova Klara Mahmudovna

Abdiraimov Shohruh Samad o'g'li

Gulyamova Shaxnoza Kaxramonovna

Ishonxonova Iroda Abduvohitovna

Ortiqova Hamida Mahmud qizi

Saidova Farida Allayor qizi

**UDK: 81:301.**  
**8:547.68.001 (374.2)**

**O‘zbek amaliy tilshunosligi va lingvodidaktikasi masalalari** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2021-yil 20-oktabr. Elektron nashr. Toshkent: ToshDO‘TAU, 2021. – 413 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti “Lingvodidaktika” kafedrasida tomonidan tashkil etilgan.

**Mas’ul muharrirlar:**

**Raupova L.R.**, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

**Mengliyev B.R.**, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

**Taqrizchilar:**

**Shahobiddinova Sh.X.**, Andijon davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

**Hamroyev G‘.H.**, Vazirlar Mahkamasi Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, dotsent, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(Phd)

**To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:**

**Abdiraimov Sh.S.**, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Lingvodidaktika” kafedrasida mudiri

**Mavlonova K.M.**, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Gulyamova Sh.K.**, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti Kengashining 2021-yil 10-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

**MUNDARIJA**  
**AMALIY TILSHUNOSLIK, KOMPYUTER VA KORPUS LINGVISTIKASI**  
**MUAMMOLARI**

<b>Kirish soʻz</b> .....	3
<b>Раупова Л.</b> Ўзбек тилшунослигида грамматик терминларнинг тадқиқи масаласи ....	5
<b>Менглиев Б., Гулямова Ш.</b> Корпус лингвистикасида кўп маънолилиқни бартараф этиш тажрибаси хусусида .....	9
<b>Хамроева Ш ., Мамадалиева Н.</b> Айрим туркий тиллар морфоанализаторларининг шарҳи .....	14
<b>Юсубова Р.</b> Синтактик ортиқчалиқ ва шаклий-мазмуний номувофиқлик .....	19
<b>Гулямова Ш.</b> Полифункционал ва кўп маъноли сўзларни фарқлашда локализация ҳодисаси.....	22
<b>Элова Д.</b> Ўзбек тили миллий корпуси учун чегараланган лексикага хос сўзларни теглаш масаласига оид.....	25
<b>Менглиева М.</b> Наракат тарзи функционал семантик майдон сифатида.....	30
<b>Атабоев Н.</b> СОСА манбаларида морфологик бирликлар тадқиқи .....	35
<b>Turibekov M.</b> Yozuv va uning tarixiy-ijtimoiy turlari haqida.....	37
<b>Abduraxmonova N., Tuliyeu U.</b> Oʻzbek tili elektron korpusining ( <a href="http://uzbekcorpus.uz/">http://uzbekcorpus.uz/</a> ) leksikografik imkoniyatlari xususida .....	41
<b>Амонтурдиева Ш.</b> Ёзма диний матнларнинг имловийхусусиятлари .....	44
<b>Umurqulov Z.</b> Qiyoslash-taqqoslash hayotiy ehtiyoj .....	47
<b>Xoliyorov Oʻ.</b> Taʼlimiy veb-resurslar va til korpuslari .....	51
<b>Safarova G.</b> Evfemizmlarning nutqiy voqelanishida pragmatik omillarning taʼsiri .....	55
<b>Ikromov A.</b> “Devonu lugʻatit turk” da suvga oid ekologik terminlar .....	59
<b>Намраев Н.</b> Газета матнида ифодавийликни оширувчи воситалар роли .....	64
<b>Axmedova D., Hamidova I.</b> Semantik razmetka: belgi va guruhlar .....	69
<b>Muhammad Humayun Nadim</b> Afgʻoniston oʻzbeklari toʻy-marosimlarida osh leksemalari etnonimlarining lisoniy talqini.....	73
<b>Abdullayeva O.</b> Internet korpus sifatida. til korpusining internet matnlaridan farqli jihatlari .....	76
<b>Saidaxmedova O.</b> Oʻzbek tilida <i>-di</i> oʻtgan zamon qoʻshimchasining oʻzlashtirilishi masalasi.....	80
<b>Zaripov R.</b> Oʻzbekistonda zamonaviy til siyosatining shakllanishida respublikada qabul qilinayotgan meʼyoriy hujjatlarning roli. ....	84
<b>Холибекова О.</b> Фитокомпонентли ва зоокомпонентли ибораларни таржима қилиш усуллари.....	8

## SO‘ZBOSHI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasida: “Uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish; ta‘lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta‘lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish” [Sh.Mirziyoyev. Inson manfaatlari har narsadan ustun. – T., 2017.] bo‘yicha istiqbolli rejalarni belgilab berdilar.

Bugungi **“O‘zbek amaliy tilshunosligi va lingvodidaktikasi masalalari”** mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumanni Universitetimiz tomonidan amalga oshirilayotgan maqsadli harakatlardan biri deb baholashimiz mumkin.

Anjuman mamlakatimiz va xorijda o‘zbek tilining nufuzi va mavqeyini yanada oshirish, o‘zbek tili lisoniy imkoniyatlaridan amaliy foydalanish samaradorligiga erishish, o‘zbek milliy lug‘atchiligini takomillashtirish, o‘zbek milliy terminologiyasi tizimini rivojlantirish, mamlakatimiz va xorijda o‘zbek tili ta‘limi sifatini oshirishga ko‘maklashish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini davr talablari darajasiga ko‘tarish, shuningdek, “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ko‘maklashish maqsadida tashkil etilmoqda.

Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev belgilab berganidek, “...davlat tilining sofliğini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integrasiyalashuvini ta‘minlash” bugungi kunda o‘zbek kompyuter lingvistikasi oldida turgan dolzarb vazifadir. Mamlakatimizda davlat tiliga e‘tibor davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri darajasiga ko‘tarildi. O‘zbek tilining

zamonaviy axborot texnologiyalari vositalarida ishlov berilishiga erishish masalalarni zamonaviy ilmiy tamoyillar asosida tadqiq etish ijtimoiy ehtiyojga aylanib bo'ldi.

Ajdodlarimizdan qolgan bebaho boylik – tilni kelajak avlodlarga to'raligicha yetkazish, uning Milliy korpusini yaratish yo'lida fidoyi olimlarimizni qo'llab-quvvatlash barchamizning sharaflı burchimizdir. Ishonchim komilki, bu kabi tizimli ishlarning samarasi o'laroq o'zbek tilimizning xalqaro maqomi yanada mustahkamlanib, jahon hamjamiyatida ham o'zining munosib o'rniga ega bo'ladi.

Bilamizki, umumta'lim fanlari tizimida ona tili ta'limi alohida o'ringa ega. Boshqa har qanday ta'lim bosqichi ona tili orqali o'zlashtiriladi. Ona tili fanini o'qitishdan maqsad – o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, o'zgalar fikrini angelaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat ekan, bu maqsadni amalga oshirish yo'lida ona tili ta'limi mazmuni zamonga hamohang tubdan o'zgarib, takomillashib bormoqda. Bilimga asoslangan jamiyatda axborotni izlash, saralash va qabul qilish, tushunish va uni tahlil qilish, tavsiflash, tuzish va qayta ishlash muhim aqliy ko'nikmalarni ecallashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda ona tili fanini o'qitish konsepsiyasi hamda Milliy o'quv dasturi loyihasining Universitetimiz olimlari, amaliyotchi o'qituvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilishi, "Ona tili" darsliklarining kommunikativ va kognitiv yondashuvlar asosida yaratilayotganligi mazkur sohadagi jiddiy islohotlardan darak beradi.

Shu bilan birgalikda bugungi kunda yechimini kutayotgan quyidagi masalalar bo'yicha ham ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirib kelinmoqda: o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish muammolari; lingvistik bilimlarni o'qitish muammolari; ta'limiy lug'atlarni yaratish muammolari; til malakasini baholash masalalari. Navbatdagi anjumanlar mazkur muammolarning ilmiy-metodik yechimiga qaratilishi maqsad qilingan.

**Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich,  
Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori,  
filologiya fanlari doktori, professor**

## **SEMANTIK RAZMETKA: BELGI VA GURUHLAR**

**Dildora AXMEDOVA,**

BuxDUning Pedagogika instituti

katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Iroda HAMIDOVA,**

BuxDU Xorijiy tillar fakulteti talabasi

**Annotatsiya.**Maqolada korpus semantik belgilarining mohiyati va zarur vositalari muhokama qilinadi. Rus tili milliy korpusining semantik belgilariga asoslanib, o'zbek tilidagi so'zlarni teglash masalasiga e'tibor qaratiladi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, semantik belgi morfologik belgining davomi bo'lib, uning xususiyatlari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada rus va Yevropa tilshunosligida semantik belgilarga yondashuvlar, semantik belgilarning nomlanishi va funksiyalari, uning ahamiyati va imkoniyatlari batafsil tasvirlangan.

**Kalit so'zlar:** semantik belgilar, markirovka, korpus, derivatsiya, mereologiya, taksonomiya, topologiya, sabab, nominativ birliklar

Semantik teg (rus., razmetka) – til korpuslaridagi so'z yoki so'z birikmasining ma'lum bir semantik kategoriya yoki undan ham kichikroq semantik guruh (LSG,



semantik maydon va to‘da)ga mansubligini bildiruvchi, ma‘noni maxsuslashtiruvchi belgi, izohlar majmuvi [Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика: учебник для студентов гуманитарных вузов. – Иркутск: ИГЛУ, 2011.48–49.]. Korpusning semantik teglari so‘z ma‘no(lari)si spetsifikasi, so‘zning omonimlik, sinonimlik bilan bog‘liq izohlar majmuini tuzish, so‘zni kategoriyalash, uning mavzuviy guruh, LSG, semantik maydonga mansubligini belgilash, derivatsion xarakteristikasi, atash ma‘nosi kabi belgilarni qamrab oladi. Rus tili milliy korpusi (NKRY)ning semantik teg (razmetka)lash tamoyillarini kuzatish shuni ko‘rsatdiki, bu korpusda bir so‘zshaklga uch turdagi belgilar biriktiriladi [Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика: учебник для студентов гуманитарных вузов. – Иркутск: ИГЛУ, 2011, 48–49.]:

1) razryad (nom yoki unga ishora so‘z: predmet, shaxs va h.);

2) leksik-semantik xarakteristika (leksema tegishli bo‘lgan LSG yoki semantik maydon, kauzativlik belgilari va h.);

3) derivatsion tavsif.

Leksik-semantik teglar quyidagi maydon bo‘yicha guruhlanadi:

1) taksonomiya (leksema mansub LSG) – ot, sifat, fe‘l, ravish so‘z turkumlari uchun tegishli teg;

2) mereologiya (“butun-bo‘lak”ka ishora qiluvchi belgi, “element-to‘da/guruh”ga mansublik belgisi) – predmet va nopredmet atov birliklariga tegishli teg;

3) topologiya (ifodalanayotgan obyektning topologik mavqeyi) – narsa otlariga tegishli teg;

4) kauzatsiya – fe‘llarga tegishli teg;

5) baho – predmet va nopredmet atov birliklari, sifat va ravishga tegishli teg.

Semantik teglashda, boshqa razmetkalarda bo‘lganidek, yagona standart shakl bo‘lmasa ham, harf, raqam yoki faqat raqamdan iborat kodlardan foydalaniladi. Birinchi harf yoki raqam semantik ma‘noni, keyingi belgi esa so‘z ma‘nosini yanada maxsuslashtiruvchi kichik semantik guruhni ifodalaydi. Semantik teg nafaqat so‘z, balki ko‘plab birikmalarni ham semantik guruhlariga birlashtiradi, bunday paytda turli birikuvdagi bir ma‘noni bildiruvchi birikmalar bitta belgi bilan kodlanadi. Idiomatik birlik (ibora) tarkibidagi so‘zlar miqdorini bildiruvchi axborot ham razmetkadan joy oladi. Semantik teg korpusdagi so‘z ma‘nosining ixtisoslashuvi, omonimlik, sinonimlik, ma‘noviy guruhga ajratish kabi muammolarni hal qiladi. V.P.Zaxarov, S.Y.Bogdanovalar ham rus tili milliy korpusini tuzishda semantik razmetkalashning o‘z variantini taklif qiladi [Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика. – Иркутск: ИГЛУ, 2011. – Б.45.]; ularning fikricha, har bir so‘zga uch xil – so‘z razryadi, leksik-semantik tavsif, derivatsion izoh berish ma‘qul.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, semantik razmetka morfologik razmetkaning davomi va kengaytmasi sanaladi; u o‘zida uch guruh belgilar tizimini aks ettiradi [Кустова Г.И., Ляшевская О.Н., Падучева Е.В., Рахилина Е.В. Семантическая

разметка лексики в Национальном корпусе русского языка: принципы, проблемы, перспективы // Национальный корпус русского языка: 2003–2005. Результаты и перспективы. Москва: Индрик, 2005. 155–174.]:

1) so‘z yasovchi ko‘rsatkichlar bilan shakllangan birlik;

2) leksik-semantik xususiyatga tegishli belgi: atoqli ot, narsa oti, asliy va nisbiy sifat, o‘z va ko‘chma ma‘no;

3) xususiy-semantik belgi: mavzuviy (taksonomik) guruh, semantik maydon.

Korpusda bo‘lganidek, “Leksikograf” tizimida ham ot, sifat, son, fe’llarning ma‘noviy guruhlari iyerarxik tasnif asosida joylashtiriladi.

Zamonaviy semantik razmetka tizimlari lug‘atlardan farqli o‘laroq, semantik tarmoq yoki leksik tasniflarga bog‘lanadi. Ular orasida Oxford Advanced Learners Dictionary (OALD)ga asosan ma‘noni parchalab qo‘llovchi WordNet[<http://wordnet.princeton.edu/>] mashhur. Ushbu semantik razmetka dasturi asosida ilk marta Braun korpusi razmetkalangan; dastur 234136 so‘zshakl razmetkasini o‘z ichiga olgan. Ushbu so‘z qo‘llash holatlarining 186575 tasi ko‘p ma‘noli. Keyinchalik LEXAS [Ng & Lee 1996] sistemasi ishlab chiqildi; unga qo‘l razmetkasi tarzida ot va fe’lga tegishli nisbatan chastotasi yuqori 200 ta so‘zning 192800 ifodasi kiritildi. Prinстон universitetida yaratilgan SemCor korpusi 700000 so‘zdan iborat, ularning 200000 tasi semantik jihatdan qo‘l razmetkasi asosida WordNet 1.6 da razmetkalangan, WordNet 1.7.-2.0 da avtomatik qayta kodlangan.

Rus tili milliy korpusi (NKRY) razmetkasi leksik-semantik tasnifi o‘z maqsadi (lingvistlarni tadqiqotlar bilan ta‘minlash, til haqidagi dalillarni ajratib olish) hamda kelib chiqishi (VINITI RANing fe’llarni turli ma‘noda qo‘llash modeli haqidagi talqin, ma‘lumotni formatlashdan iborat “Leksikograf” leksik ma‘lumotlar bazasining merosxo‘ri hisoblanadi) bilan FrameNet tizimiga yaqin turadi. Ammo bu korpusning tasnifi FrameNetniki singari mukammal emas. Buning bir necha sababi mavjud [Рахилина Е.В., Кобрицов Б.П., Кустова Г.И., Ляшевская О.Н., Шеманаева О.Ю. Лексико-семантическая разметка в национальном корпусе русского языка. (Электрон ресурс): <http://ruscorpora.ru/sbornik2005/10kustova.pdf>.]:

1) sinfosti guruhlardan iborat shajaraviy qidiruvdan farqli “to‘g‘ridan-to‘g‘ri” qidiruv tezkor natija beradi;

2) semantik sinf nomlari kompyuter oynasida bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘lsa, lingvist-foydalanuvchi tasnif tizimidagi to‘g‘ri yo‘nalishni tezroq topadi, shunga ko‘ra, qidiruv savolini ham tezroq kiritadi. Semantik ko‘p ma‘nolilik masalasining yechimi ham leksik sinflar ko‘lamida osonlashadi.

Y.D.Apresyan va boshqa hammualliflarning fikricha, bugungi kunda semantik teglash (razmetka)ning asosiy shakli fragmentning boshi va oxirini belgilaydigan, fragmentni tavsiflaydigan atributli teglar bilan to‘ldirilgan, xml, rtf, wiki formatdagi matnlar sanaladi [Апресян Ю. Д., Богуславский И. М., Иомдин Б. Л. и др. Синтаксически и семантически аннотированный корпус русского языка:

современное состояние и перспективы // Национальный корпус русского языка: 2003-2005. – Москва: Индрик, 2005. – С.193-214.].

Korpus lingvistikasida semantik teglash rivojlangan hamda mukammal teglash dasturlari mavjud bo'lishiga qaramay, semantik teglash jarayoni qator kamchiliklarga ega ekanligi ko'rinadi. M.Y.Zagorulko, I.S.Kononenko, Y.A.Sidorova semantik razmetkaning xml, rtf, wiki formatda saqlanuvchi matnlarda mavjud bo'lishida quyidagi kamchiliklarni sanab beradi [Загорулько М.Ю., Кононенко И.С., Сидорова Е.А. Система семантической разметки корпуса текстов в ограниченной предметной области // <http://www.dialog-21.ru/media/1372/94.pdf>]:

- 1) istalgan fragment bo'lagini ajratib olish qiyin;
- 2) fragmentlar orasidagi aloqani ko'rsatish yengil kechmaydi;
- 3) ko'p atributli obyektlarning tavsifini ajratib olish murakkab;
- 4) teg va atribut belgilari sistemasi teglovchi mutaxassis tomonidan mustaqil tanlanadi; semantik teglar tizimining umumqabul qilingan standarti mavjud emas;
- 5) past samarali dasturiy ta'minot bilan ishlaydi.

Korpusni semantik teglash dasturchi va tilshunosning kompetensiyalari birlashishi asosida ikki asosiy ko'rinishga ajratiladi:

- 1) terminologik razmetka – matndagi tushunchalarni nomlash bosqichi;
- 2) birliklararo munosabatni ko'rsatuvchi teglar bilan ta'minlash. Bunda har qaysi birlikning semantik maydondagi o'rni, boshqa birliklar bilan munosabatini aniqlash nazarda tutiladi.

M.Y.Zagorulko, I.S.Kononenko, Y.A.Sidorovalar semantik razmetkani shunday baholashadi: “Annotatsiya (semantik razmetka; izoh muallifniki) – belgi, pozitsiya, axborot uchligi majmuasi; u ma'lum bir birlikning matn (fragment)dagi vazifa hamda pozitsiyasi to'g'risida axborot beradi”. Ushbu mutaxassislar razmetka tizimining quyidagi imkoniyatlarini ko'rsatishadi:

- 1) txt, rtf formatdagi matnlarni yuklash; win32, Koi8, dos, Unicode kodirovkasini ko'tara olish;
- 2) mspr maxsus formatidagi (Mars System Project) razmetkalangan matnni yuklash va xotirada saqlash;
- 3) belgilar ierarxiasini ko'rish va tahrirlash;
- 4) alohida belgi sifatida yozilgan fragmentni ko'rish, tahrirlash;
- 5) bir vaqtda bir yoki bir necha razmetkalangan fragmentni ko'rish (albatta, matnning ko'rinishidagi qismlarida);
- 6) xml va shunga o'xshash formatdagi razmetkalangan matnni yuklash, xotirada saqlash;
- 7) matnning razmetkalangan fragmentini matndagi pozitsiyasi, belgisiga ko'ra guruhlash;
- 8) ierarxik razmetkani ta'minlash.

Ularning fikricha, mana shu belgilarga ega razmetka dasturi yordamida interfeys tajribali/tajribasiz foydalanuvchi uchun birdek qulay hamda intuitiv tushunarli tarzda tuzilishi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика: учебник для студентов гуманитарных вузов. – Иркутск: ИГЛУ, 2011. – 161 с. – С. 48-49.
2. Кустова Г.И., Ляшевская О.Н., Падучева Е.В., Рахилина Е.В. Семантическая разметка лексики в Национальном корпусе русского языка: принципы, проблемы, перспективы // Национальный корпус русского языка: 2003-2005. Результаты и перспективы. Москва: Индрик, 2005. – С. 155-174.
3. <http://wordnet.princeton.edu/>
4. Рахилина Е.В., Кобрицов Б.П., Кустова Г.И., Ляшевская О.Н., Шеманаева О.Ю. Лексико-семантическая разметка в национальном корпусе русского языка. (Электрон ресурс): <http://ruscorpora.ru/sbornik2005/10kustova.pdf>
5. Загорулько М.Ю., Кононенко И.С., Сидорова Е.А. Система семантической разметки корпуса текстов в ограниченной предметной области // <http://www.dialog-21.ru/media/1372/94.pdf>